

O'Quvchilarni Ijodiy Tasavvurlarini Rivojlantirishda Tasviriy San'at Mashg'Ulotlarini O'Rni

Karimov Xamidbek Otaxanovich, Urganch davlat universiteti
Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası katta o'qituvchisi
Atayeva Nargiz Rustamovna, "San'at" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqola umumta'lim maktablarida o'quvchilarni ijodiy tasavvurlarini rivojlantirish, san'atshunoslik nazariyasidan xabardor qilish va tasviriy savodxonligini shakllantirishda tasviriy san'at mashg'ulotlarini roli va o'rni kabi masalalarga qaratilgan.


Kalit so'zlar: Layoqat, tafakkur, xotira, diqqat, havo perspektivasi, muvozanat, mahorat, qobiliyat, individual, metodika, didaktik, ijodiy fikrlash.

Inson dunyoga kelgan kunidanoq ichki imkoniyatlarini rivojlantirishga qodir. O'zining layoqatlari, tasavvuri orqali atrofdagi olam bilan muloqotga kirishish malakasi insonning o'z ichki olamini ochib beradi. Layoqatlarning vazifasi o'quvchilarning individuallik yondoshuvi bilan uning har tomonlama rivojlanishining umumiy talablari bilan belgilanadi. Layoqatlarning shakllanishi va rivojlanishi manba bo'lib faoliyat ko'rsatadiki, tasavvur esa o'quvchilarning o'ziga xosliklari, idrok, tafakkur, xotira, diqqat, qiziqishlar, qobiliyatlarining individual o'ziga xosliklari bilan shartlangandir.

Ijodiy tasavvur har doim ijodiy faoliyatda ishtirok etadi, shuningdek, moziydan lavhalarni, jamiyat hayotining tarixiy voqealarini va shu lahzadagi faqatgina kelajakni yaratishga imkon beradi. Tasavvur insonning butun hayoti davomida shakllanadi va rivojlanadi. Bunga ta'lim jarayonida olingan bilimlar hajmini sezilarli kengayishi, turli xil ko'nikma va malakalarni egallashiga yordam beradi. Kuzatuvlarning zahirasi qancha ko'p bo'lsa, ularni tasavvur faoliyatida qo'llashga shuncha ko'p imkoniyat mavjuddir.

Rivojlanmagan tasavvur bilan o'quvchi ijod qila olmaydi va bunday holatda u kuchsiz, tabiatning uzoqlashgan nushasini yaratishi mumkin. Mashhur professor K.D.Troximenko, o'quvchi kompozitsiyani bajarishda barcha narsani naturadan oladi va tasavvuriga ko'ra "o'zi bilganicha" biron narsani hal qilishga qo'rqadi. Bu isbotni tajribali pedagog jiddiy kamchilik deb qaraydi. Ishga bunday yondoshuv ijodiy tasavvurni, ko'z xotirasini muvaffaqiyatli rivojlanishini sekinlashtirib qo'yadi. Bunga o'xshash metodlarda yuqoridagilar umuman rivojlana olmaydi. Ijodiy faoliyatga bo'lgan talab muayyan yangi mahsulotga ommaviy zaruriyat orqali paydo bo'ladi.

Aynan mana shu ijodiy g'oyalarning, o'ylarning hosil bo'lishiga olib keladi, yangilikni yaratishga turtkilovchi kuch bo'lib xizmat qiladi. O'quvchi ongining rivojlanishi va tasavvuri amaliy faoliyatda shakllanadi. Qiyofalar yarata turib, ularni muayyanlashtiradi, boyitadi, ya'ni ish davomida ularni doim o'zgartirib boradi hamda tasviriy faoliyatining yurishida xira, noaniq ijodiy o'ylarini ro'yobga chiqaradi. Tajriba o'quvchining har qaysi ijodiy o'ylarini ro'yobga chiqishiga imkon beradi. Har bir ijodiy faoliyat kabi badiiy ijod ketma-ketli bog'langan vazifalarni hal etishdir. Shunga ko'ra bu vazifalar bir-birining ketma-ketligiga qat'iy rioya



etishi shart va xuddi shunday ketma-ketlikda odatda ijodiy tasavvurini birlashishiga olib keladi.

- ✓ **Kartina g‘oyasini tasavvurlash;**
- ✓ **Dastlabki eskizlarni yaratish;**
- ✓ **Eskizda belgilanganlarni hal qilish uchun suratlar, xomaki chizgilar, etyudlarni bajarish;**
- ✓ **Bo‘lajak asarning kompozitsion tuzilishini yakunlash;**
- ✓ **Tasvirlarda xomaki chizgilar, etyudlarni bajarish va ular yordamida kartinadagi kamchiliklarni to‘g‘rilash;**
- ✓ **Kartining yakuniy rangli qayta ishlovi.**

Etyudlar, suratlar, xomaki chizgilar ko‘rinishidagi materiallar yig‘indisi shunday manba bo‘lib xizmat qiladiki, o‘quvchi ular asosida kompozitsiya muammosining yakuniy echimi ustida ish boshlaydi, o‘quvchi ijodiy ishining bu bosqichida natural materiallar bilan boyitilgan bir qator eskizlarni bajarilishi bilan xarakterlanadi. Bu vazifani hal etish odatda bo‘lajak asarning asosiy elementlarini o‘z ichiga oladi va detallarigacha ishlab chiqilgan yakuniy eskizlarning yaratilishi bilan tugallanadi.


So‘ng o‘quvchi kartinani suratlarida bajaradi. Bu kartinada ham yorug‘ soya munosabatini aniqlash uchun ham rangtasvir texnologiyasiga to‘g‘ri rioya etish zarurdir. Bir qator suratlar bajarilgandan so‘ng, kartina ustidagi ijodiy ishning yakunlovchi bosqichi keladi.

Amalda ijodiy jarayon deyarli murakkab kechadi, vazifalar ko‘proq qo‘yiladi, ular esa oxirgi mahoratning darajasiga qarab o‘zgarib turadi. Ijodiy tasavvurning o‘ziga xos ko‘rinishi va ko‘rinish qiyofasini shakllanishiga, rivojlanishiga rassomlarning ko‘plab asarlari ustida ishlash jarayoni xizmat qiladi.

Ijod - asarni qiyinchiliksiz yaratilishiga olib keluvchi ilhomlanish natijasidir. Ilhomlanish - yakuniy natijasi sezilarli darajadagi ijodiy yutuqlar hisoblangan rassomning barcha ruhiy kuchlarining zo‘r berib ishlashidir. Ilhomlanish o‘quvchining shunday ruhiy holatini aks etadiki, unda u barcha ishining uddasidan chiqadi, uning ijodiy intilishlari bilan faoliyatining natijasi to‘la muvofiq kelishi kuzatiladi. Bilim, ko‘nikma, malaka, badiiy qiyofaning shakllanish jarayonining barcha tarkibiy qismlari, o‘quvchining mehnati davomida miqdoriy izchil to‘planib, muayyan vaqtdan so‘ng yangisiga, sifat jihatidan yanada yuqoriga ko‘tariladi.

O‘quvchi ijodiy faoliyatining bu yangi sifatli mazmuni uning o‘ylaganliklariga oson erishishi, avval uddasidan chiqqan olmaganliklarini bajara olishida namoyon bo‘ladi. Hayotni o‘rganish va kuzatuvchanlik badiiy ijodda ajralmas holda bog‘liqdir. Badiiy asarni yaratish vazifalarni ijodiy hal etishning katta tayyorgarligi bilan birga hamohangdir. Materialni doimiy to‘planishi ijodiy vazifalarni bajarishda rassomning umumiy tayyorgarligini yaratadi, uni navbatdagi ijodiy tasavvurini echishga yo‘naltiradi.

Shuni ta’kidlashni istardikki, o‘quvchilarning ijodiy tafakkurni rivojlanishida ayniqsa muzeylar va ko‘rgazmalarni tomosha qilish, rassomlar bilan suhbatda bo‘lish katta yordam beradi. Ijodning barcha bosqichlarida zo‘r mehnat, tafakkurning faol ishlashi, tajriba va qat’iyatsizlik bularning bari o‘quvchining tasavvurisiz mavjud bo‘la olmaydi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganlarning barchasi ta’lim oluvchini ijodiy shaxs sifatida shakllantiradi.



Foydalanigan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik! – T.: TASVIR, 2021. - 52 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 23-iyundagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida “O'zbekistonda islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi ma'ruzasi. // Ma'rifat gazetasi, 2017-yil 24-iyun, №50
3. Ўзбекистон Республикаси «Таълим тўғрисида»ги қонуни. Баркамол авлод Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. -Тошкент. Шарқ.: 1997й.
4. Ҳасанов Р. Мактабда тасвирий санъат ўқитиш методикаси. Талабалар учун дарслик. -Т.: Фан, 2004й.
5. Ойдинов Н. Рассом-ўқитувчилар тайёрлаш муаммолари. -Тошкент.: Ўқитувчи, 1997й.
6. Ҳ.Эгамов «Рангтасвир» ўқув қўлланма. -Тошкент.: Ўқитувчи, 2005й.